

Otabek QUVVATOV

# OLIMJONNING SARGUZASHTLARI

*Sarguzasht-fantastik qissalar*



Toshkent – 2017

**UO'K: 821.512.133+398.21**

**KBK: 84(50')7**

**Q 71**

**Quvvatov, Otabek**

**Olimjonning sarguzashtlari:** sarguzasht-fantastik qissalar / O. Quvvatov – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. – 200 b.

ISBN 978-9943-4707-1-2

**UO'K: 821.512.133+398.21**

**KBK: 84(50')7**

Taqrizchi va so‘z boshi muallifi:

**Xudoyberdi To‘xtaboyev,**

O‘zbekiston xalq yozuvchisi

ISBN 978-9943-4707-1-2

© “Yurist media markazi” nashriyoti, 2017.

## ISTE'DOD QIRRALARI

Havaskor yozuvchi Otabek Quvvatovning “Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig‘ida” asari o‘zbek xalq ertaklari asosida, qisman fantastika janrida yozilgan. Muallifning avval ham e’lon qilingan kichik-kichik ertaklarini, bolalarga bag‘ishlangan she’riy kitoblarini o‘qigan edim. Otabek bu gal katta hajmdagi asarga qo‘l urgan ekan, dadilligi uchun uni tabriklash kerak, deb o‘layman.

Iste’dod qaysi ko‘rinishda yuz ko‘rsatayotgan bo‘lmasisin, u o‘ziga nisbatan mehr-muhabbat va e’zozni talab etadi. Otabekning xalq ertaklari uslubida fantastikaga qo‘l urishi bejiz emas. Avvalo shuni aytish kerakki, bugungi o‘zbek bolalar adabiyotida fantastika janrida yangi asarlar kam yaratilyapti.

Bolalar adabiyotiga bo‘lgan talab to‘xtamay o‘sib borayotgani hech kimga sir emas. Buni hisobga olgan hushyor, tadbirkor noshirlar chet el ertaklarini tarjima qilib, chop etishmoqda. Lekin bolalar qalbi, ongi, ruhiga o‘z ona tilida va milliy xarakterda yozilgan asarlar ko‘proq ta’sir etadi. Birovning bolasini birovning otasi tarbiyalamasin, degan hazilnamo gaplar ham bejiz aytilmagan. Shu ma’noda, yosh yozuvchi Otabek Quvvatovning ushbu asari o‘z vaqtida yozilgan asarlardan biri, deb hisoblayman.

“Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig‘ida” asarida xayolotga berilgan oltinchi sinf o‘quvchisi Olimjonning ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi olishuvda yaxshilik g‘alaba qozonishi uchun ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechirganligi hikoya qilinadi. Bilamiz, o‘n ikki yoshli bolalarda, ayniqsa, o‘smirlik pallasida xayolotga berilish kuchli bo‘ladi. O‘zida kuch topib, tog‘larni talqon, cho‘li biyobonlarga suv chiqarib, olamni guliston qilsam, deydi. Kuchli xayolotga berilgan o‘smir zamon bilan

makonning farqiga bormay qoladi. Ushbu asar qahramoni ham o‘zi axtarayotgan “Ezgulik” kitobini topish va o‘sha kitob bekitilgan kutubxonaning qulfini ochish uchun kalit izlab, yana va yana xayolga beriladi. “Odamlar ming yillardan buyon yovuzlikka qarshi kurashayotgan ekan, demak, ularning bu boradagi tajribasi haqida esdaliklar ham qolgan, shu esdaliklar yozilgan kitobni, albatta, topaman”, degan niyatda dunyo sayohatiga chiqadi. Ertakka, fantastikaga xos voqealarni boshidan kechiradi. Odil podshohlarni, el uchun kurashaman, degan To‘qson boboga o‘xshagan donishmandlarni ko‘radi. Kitob bekitilgan xazina kalitini axtaradi. Bunday paytda zamon va makon qorishib ketadi. Goho qadimgi Rimda bo‘ladigan gladiatorlar jangida, goho dushmanni daf qilish uchun podshohlar tomonida bo‘ladi. Nihoyat, qahramonimiz buyuk alloma, buyuk bobomiz Al-Xorazmiy hazratlari bilan suhbatlashish baxtiga tuyassar bo‘ladi.

— Ey o‘g‘lim, sen axtarayotgan kitob va xazina kalitlarining hammasi ilm-fanda, donishmand otalarda, eng muhimmi, algoritm qatorlarida. Ya’ni ilmni, fanni chuqurroq egallagan kishi nimani axtarsa, uni fandan, ilmdan va donishmand bobolarning hikmatlaridan topadi. Ezgulik kitobini egallaganlar jaholatga qarshi kurashganlar hisoblanadi, — deb aytadi bobomiz.

Asar qiziqarli, hayajonli, mazmundor, suhbatlarga boy. Bora-bora donishmandlarning hikmatlari bilan to‘lib, boyib boradi. Mana shularning hammasi, asarni o‘qishli va ta’sirli qilgan.

Yosh muallifning ijodiga omadlar tilayman.

**Xudoyberdi To‘xtaboyev,**  
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

**OLIMJONNING  
SARGUZASHTLARI  
YOXUD ZAMON VA MAKON  
ORALIG‘IDA**



